

СУЩНОСТЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ И АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Маллабоев Носиржон Муродуллаевич, доцент

Наманганский государственный технический университет

Имамова Зулхумор Алишеровна, преподаватель

Учкурганский техникум промышленности и технологий

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые компоненты информационной компетентности, методы её формирования и возможности применения в образовательной среде. Кроме того, анализируется роль аналитического мышления в учебном процессе, факторы, влияющие на его развитие, а также связь с современными педагогическими технологиями. Результаты исследования включают важные рекомендации по эффективному освоению знаний и развитию аналитической компетентности в цифровой образовательной среде.

THE ESSENCE OF INFORMATIONAL AND ANALYTICAL COMPETENCE IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Mallaboyev Nosirjon Murodullayevich, Associate Professor

Namangan State Technical University

Imamova Zulxumor Alisherovna, Lecturer

Uchkurgan Technical College of Industry and Technology

Abstract: This article examines the key components of informational competence, methods for its formation, and its application in the educational environment. Additionally, the role of analytical thinking in the learning process, factors influencing its development, and its connection with modern pedagogical technologies are analyzed. The research results include important recommendations for the effective acquisition of knowledge and the development of analytical competence in the digital educational environment.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA AXBOROT VA TAHLILIY

KOMPETENTLIGINING MOHIYATI

Mallaboyev Nosirjon Murodullayevich, dotsent

Namangan Davlat Texnika Universiteti

Imamova Zulxumor Alisherovna, o'qituvchi

Uchqo'rg'on sanoat va texnologiya texnikumi

Annotasiya: Maqolada axborot kompetentligining asosiy komponentlari, uni shakllantirish usullari hamda ta'lim muhitida qo'llash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, tahliliy fikrlashning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim sharoitida samarali bilim olish va tahliliy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha muhim tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Raqamli ta'lim muhitida axborot va tahliliy kompetentlik an'anaviy ta'lim muhitiga qaraganda ancha kengroq va chuqurroq ma'noga ega bo'ladi. Bu kompetentlik talabalarga raqamli dunyoda samarali harakatlanish, ma'lumotlarni qidirish, tanlash, baholash, tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyatini beradi.

Ta'lim sohasini rivojlantirishning zamonaviy boschig'ichi aniq kelajakka mo'ljallangan kompetentlik yondashuvni izchil tadbiq etishi bilan ajaralib turibdi. Har bir inson ta'lim olish imkoniyatlari muvaffaqiyatli, professional va shaxsiy faoliyati inobatga olishida va aniq vaziyatlarda o'zining imkoniyatlariga odil baho berish orqali tanlash qobiliyatida nomoyon bo'ladi. Umumiy olinganda kompetentlik yondashuv quyidagi shartdan kelib chiqmoqda, hayotda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim olish jarayonida har bir inson aniq amaliyotga asoslangan bilim olishi, ijtimoiy va professional muhim sifatlarini rivojlantirishi lozim. Ta'limning yuqori texnologiyali sohaga o'zgarishi pedagogik izlanish va kelajak mutaxassislarining axborot kompetensiyasini (vokolatlarini) shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash masalalarini aktuallashtirmoqda. Axborot kompetensiyasiga (vakolatiga) ega pedagogni shakllantirishda oliy ta'lim muassasasida o'zlashtirilgan, amaliy bilimlarga va o'zini bilimini yangi pedagogik

sharoitlarda va vaziyatlarda ishlatish qobiliyatiga asoslangan bilim muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasasi me'yoriy hujjatlari va amaliyotiga "professional kompetentlik" degan tushuncha kirib kelgan. Tadqiqotchilar ushbu atama bo'yicha ham har xil yondashuvga ega. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda "professional kompetentlik" ga) ish samaradorligini aniqlaydigan bilimlar yig'indisi mehnatga amaliy va nazariy jihatdan tayyorgarlik birligi professional shaxsiy fazilatlar va bilimlar kompleksi keltirilgan va boshqa izohlar har xil bo'lganligi bilan ularda leksik umumiy kognitiv va hissiy elementlar mavjud. Ushbu izohlarni umumlashtirib, "professional kompetentlik"ni pedagog professional faoliyatini olib borishda samalari loyihalashtirish uchun lozim bo'lgan integratsiyalashgan bilim, ko'nikma va tajribalar yig'indisi deb tushinamiz.

Shunday qilib pedagogika va ta'limning doimiy tushunchaviy yangilanishi yangi xar xil ko'rinishda talqin qilinayotgan "kompetensiya", "kompetentlik", axborot kompetentlik" kabi tushunchalarning mohiyatini tushinib yetish bilan birgalikda amalga oshirilishi ta'kidlab o'tishimiz lozim. Shuning uchun zamonaviy pedagogika fanida kompetensiya va kompetentlikni tasniflash masalasi muammo bo'lib qolmoqda. Bugungi kunga qadar kompetensiyaning yagona tasnifi mavjud emas. Talabada oliy pedagogik ta'limni olayotganda qancha va qanaqa kompetensiyalar shakllanishi to'g'risida yagona fikr yo'q. Ilmiy adabiyotlarda kompetensiya quyidagi guruxlarga ajratiladi:

Professional kompetensiya. Chet el adabiyotida bilim va ko'nikmalar asosida metodik to'g'ri va vaziyatni to'g'ri baholagan holda vazifa va muammolarni maqsadli yechishga tayyorgarlik holati deb qayd etilgan. Olimlar ta'lim olish sohasida professional ko'nikmalar, texnologiyalar va metodlar deb tushiniladi .

Asosiy (bazaviy kompetensiyalar. Abstrakt mavzularda fikrlash, analiz va sintez qilish, lider bo'lish, vazifa va muammolarni yechish, moslashish, jamoada va alohida ishdash deb tushiniladi. Umuman olganda bu xamma odamlar uzining professional darajasidan qat'iy nazar ega bo'lishi lozim bo'lgan kompetensiyalar.

. Shaxsning o'ziga, boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda, jamiyatda

tegishli bo'lgan kompetensiyalar yig'indisidir. Kompyuter texnologiyalari yordamida professional faoliyatida samarali ish yuritishga yo'naltirilgan bilim, ko'nikmalar va faoliyat turlari yig'indisi sifatida tushiniladi. Shuni aytib o'tish joizki, ushbu kompetensiya guruxlariga xar hil asoslar keltirilgan. Birinchidan, xamma shaxslarga tegishli bo'lgan hamda aniq tavsifiga (sifatlari) yo'naltirilgan. Ikkinchidan, bu kompetensiya guruxlari asosida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv mavjud va bunga axborot kompetensiyasi ham kiradi.

Axborot va tahliliy kompetentligining asosiylariga quyidagilar ajratiladi:

Rag'batlantiruvchi, qiymatli (talabaga qiymatni tushinib yetish sharoitlarini yaratish). Asosiy qiymatli yo'nalishlarni tanlashga yordam beruvchi, o'z ishiga va xayotiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning rag'batlantiruvchi xissiyotlarini tavsiflaydi.

Axborotni ishlatish, ta'limiy ma'lumotlarni izlashning zamonaviy metod va usullariga egalik qilish, xar xil manbalardan ma'lumot topish qobiliyati, ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlariga ajratish qobiliyati, olingan ma'lumotlarni professional pedagogik faoliyatida ishlata olish qobiliyati. Texnik-texnologik. Ma'lumotlarni izlashni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlashda texnik vositalarni ishlash prinsipini, imkoniyatlari va cheklovlarni tushinish, ularning asosiy tasnifiga ko'ra klassifikatsiyalash va uni yechish uchun texnik vosita turini tanlash.

Ikkinchi shaxsga ma'lumotlarni berishda (verbal, noverbal), rasmiy va tabiiy tillarni bilishda texnik vositalarni ishlata bilish, tushinish va ishlatish.

Kommunikativ, metodik, tashkiliy va konstruktiv faoliyatida aks etadigan.

Bizning fikrimizcha, keltirilgan elementlardan umumlashtirgan holda foydalanish kelajakdagi talabalarning axborot va tahliliy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi. Axborot va tahliliy kompetentligi barcha elementlarini maqsadli shakllantirish pedagogika oliy ta'limi muassasalarida yetuk professional mutaxassislarni tayyorlashda yordam beradi. Shunday qilib, axborot va tahliliy kompetentligi mohiyati va tuzilmasini o'rganish, nazariy yondashuv tahlili plyuralizm fikrlari mavjudligini, "kompetensiya", "kompetentlik", "axborot

kompetensiyasi”, “professional kompetentlik”, “axborot va tahliliy kompetentligi” atamalarining turlicha izohi borligini va ushbu yangi atamalar pedagogika ta’limida tadqiqot predmeti hamda ta’lim amaliyoti ko’p qirrali dastur sifatida qabul qilinishini ko’rishimiz mumkin. Biz “kompetensiya” atamasini pedagogik ta’lim muassasalarida o’qish davrida olingan, o’zining samarali professional faoliyatiga yo’naltirilgan bilim, ko’nikma va faoliyat usullari sifatida qabul qilamiz. Kompetentlik esa oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va professional vazifalarni yechish uchun olingan kompetensiyalarni ishlatish qobiliyati sifatida tushinamiz. Professional kompetentlik atamasini biz pedagogga professional faoliyatini samarali loyihalashtirish va amalga oshirishga yo’naltirilgan integratsiyalashgan bilim, ko’nikma, tajriba va shaxsiy sifatlar yig’indisidir. “Kompetensiya”, “kompetentlik” va “professional kompetentlik” atamalarini tushinib yetish pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot va tahliliy kompetentligi atamasini tushinishga olib keladi. U integrativ sifat ko’rinishida axborot texnologiyalari sohasida yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko’nikmalar, ularni asosiy oliy ta’lim dasturini o’zlashtirishda foydalanish va ishlatish qobiliyatida, o’quv tarbiyaviy jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorgarligida o’z aksini topadi. Ushbu izohdan kelib chiqib, pedagogika oliy ta’lim muassasasida talabaning axborot va tahliliy kompetentligi tuzilmasida o’zlashtiriladigan axborot va tahliliy kompetentligi jamlanmasini ajratishimiz mumkin. Terminologik kompetensiya, ma’lumotlarni qayta ishlash, standart vositalarga egalik qilish kompetensiyasi, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o’quv ishlarini tashkil etish sohasidagi kompetensiya. Axborot va tahliliy kompetentligi tuzilmasini aniqlash bo’yicha yondashuvlarga tizimlash, ularning asosiy qismlarini, rag’batlantiruvchi-qiyamatli, professional faoliyatli, texnik-texnologik, kommunikativ va tezkorlik komponentlarini ajratishga imkon beradi. Ta’lim amaliyotiga kompetentlik yondashuvning joriy etilishi jahon tendensiyalariga mos keladi va ta’limni innovatsion rivojlantirish talablariga javob beradi va “bilim-ko’nikma-tajriba” instrumental-pedagogik usul bilan yetarli darajada moslashadi. Ta’lim

standartlarining yangi avlodiga “kompetensiya” normativ talabini joriy etish talabalarning kompetensiyalarini bilish, ishlatish va rivojlantirishga urg‘u berilishini anglatadi hamda o‘quv, professional faoliyatida shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy, professional vazifalarni hal etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodullayevich, M. N. (2023). PROBLEMS OF ORGANIZING DISTANCE EDUCATION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(05), 54-59.
2. Abdullaeva, N., Mamurova, F., & Mallaboev, N. (2020). Efficiency of experimental preparation use multimedia to enlarge some questions. *Экономика и социум*, (6), 11-13.
3. Murodullayevich, M. N. (2023). PROBLEMS OF ORGANIZING DISTANCE EDUCATION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(05), 54-59.
4. Murodullaevich, M. N., & Sharifjanovna, Q. M. (2023). Stages of introduction of electronic government. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(01), 15-17.
5. Murodullaevich, M. N., & Sharifjanovna, Q. M. (2023). The role of information systems in the management structure. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 17(01), 18-21.